

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUNAZAROV ABDUMUTAL OLIMOVICH

**AQLI ZAIF O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI
(Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslari misolida)**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Sontenus of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) he was pedagogical sciences**

ABDUNAZAROV ABDUMUTAL OLIMOVICH

Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari
(Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslari misolida)3

АБДУНАЗАРОВ АБДУМУТАЛ ОЛИМОВИЧ

Инновационные технологии подготовки учащихся с задержкой психического
развития к социальной жизни (на примере уроков социально-бытовой
ориентации).....23

ABDUNAZAROV ABDUMUTAL OLIMOVICH

Innovative technologies of preparing students with mental retardation for social life
(On the example of the life lessons of the road to social and household life).....46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works51

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ABDUNAZAROV ABDUMUTAL OLIMOVICH

**AQLI ZAIF O‘QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASHNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI
(Ijtimoiy-maishiy hayotga yo‘naltirish darslari misolida)**

13.00.03 – Maxsus pedagogika

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Ped2014 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Feruza Usmanovna

pedagogika fanlari doktori, (DSc) dotsent

Rasmiy opponentlar:

Yakubjanova Dilobar Batirovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Turgunboyev Sirojiddin Faxriddinovich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___»_____kuni soat_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___»_____kuni tarqatildi. .

(2023-yil «___»_____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.N. Mamarajabova

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor.

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

L.R.Muminova

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida nogironlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga ega ekanligi, sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashini ta'minlashga hamda ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish, mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda faol shaxs sifatida tayyorlashga yo'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim modellari tatbiq etilmoqda. Bu borada 1975 yil BMT tomonidan "Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida" Deklaratsiyasi, nogironlarni ijtimoiylashtirish fondi, imkoniyati cheklangan bolalar ota-onalari uyushmasi (NBOU) ta'sis etilgan. YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Jamoatchilik Asosidagi Reabilitasiya (JAR) bo'yicha yo'riqnoma"da nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, turli sohalarda o'qish imkoniyatlariga ega bo'lishi, o'z salohiyatlaridan to'la foydalanib, g'urur va qadr-qimmatini oshirishi, jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga erishish hamda ularda ijtimoiy faollik motivasiyasini intensiv rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlar tadbiq etilmoqda.

Jahonda nogironlarni ijtimoiy hayotga integratsiyalash va ularni kasb xunarga o'rgatishda "Oqilona qulayliklar" yaratish, formal va noformal ta'lim tizimini joriy qilish, innovatsion hamda variativ texnologiyalarni aniqlash, tanlash va amaliyotga samarali joriy etish bo'yicha muhim ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning korreksion pedagogik xususiyatlari, metodik tizimi, pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbga o'rgatish, mustaqil hayot uchun zarur bilim va ko'nikmalar asosida takomillashtirish, shaxsga yo'naltirilgan, variativ yondoshuvlar, aqli zaif bolalarni ta'limning dastlabki davrida ijtimoiy hayotga tayyorlashga doir pedagogik, metodik, korreksion ishlarni samarali tashkil etish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda nogironligi bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etishning xuquqiy meyoriy asoslari mustaxkamlanmoqda. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish, ularning hayot sifati va darajasini oshirish"- kabi ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida", 2020 yil 15 oktyabrdagi O'RQ-641-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida" qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdagi PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2020 yil 13

oktabrdagi PQ–4860 son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida” qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Aqli zaif bolalarga ta’lim-tarbiya berish, ularning ikkilamchi nuqsonlarini korreksiyalash, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning ilmiy-nazariy, metodik asoslari X.Akramova, Sh.Amirsaidova, L.R.Mo‘minova, N.Musayeva, V.Raxmonova, G‘.B.Shoumarov, L.Sh.Nurmuxammedova, M.P.Xamidova ilmiy ishlarida tahlil qilingan.

Hamdo’stlik mamlakatlarida E.A.Гафари, В.Воронкова, Н.Е.Давыдов, Й.Колтакова, Н.Л.Морозова, Е.А.Ковалева, И.М.Бгажнокова, В.В.Беляков, А.Н.Гамаюнова, Н.Н.Малофеев ilmiy izlanishlarida aqli zaif o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasini tashkil etish, ularda hayot uchun zarur ijtimoiy ko‘nikma va malakalarni, oddiy mehnat uquvlarini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan A.Bandura, E.O.Brim, A.R.Maller, S.W.Blackstone, B.Farber, L.A.Sisson, M.W.Barksdale, D.M.Boswell, T.P.Gumpel, H.C.Gunzburg, R.M.Hodapp, V.B.Van Hasselt kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida aqliy rivojlanish o‘rganilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Uzluksiz ta’lim tizimini texnologiyalashtirishning dolzarb muammolari” mavzusini ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.(2016-2021)

Tadqiqotning maqsadi aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning psixologik-pedagogik imkoniyatlarini tahlil etish;

boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash me’zonlarini takomillashtirish;

boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash modelini takomillashtirish;

boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga doir texnologiyalarni takomillashtirish.

Tadqiqotning obekti sifatida aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga

tayyorlashning innovatsion texnologiyalari belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Sirdaryo, Jizzax viloyatlaridan jami 345 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbaalar, me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari insonparvarlik tamoyillarining huquqiy kafolatlariga mos mikromuhitni yaratish hamda rivojlantiruvchi ta'limning kommunikativ-konstruktiv, tashkiliy-refleksiv komponentlarini korreksion ta'lim amaliyoti bilan o'zaro integrativ uyg'unlashtirish tendensiyalari asosida takomillashtirilgan;

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni muammoli-loyihaviy texnologiyalar, tolerantlik, shaxsga yo'nalganlik va qadriyatlilik tamoyillariga asoslangan kompleks ta'sirni boshlang'ich kasbiy bilimlarning oddiydan murakkabga qarab rivojlantirish traektoriyasiga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning didaktik modeli ta'lim oluvchilarda ijtimoiy potensial imkoniyatlarni rivojlantiruvchi maqsadli-motivatsion, mazmunli-texnologik pedagogik jarayon bosqichlari izchilligi va barqarorligiga ta'limiy maqsadlarni dinamik moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini baholash me'zonlari korreksion ta'lim subektlari manfaatlarini inobatga olish hamda ijtimoiy faoliyat trayektoriyasiga differensial ishlash kompetensiya elementlarini intensiv rivojlantirishga qaratilgan kasbiy-amaliy topshiriqlar bilan konsentrik uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning manzilli va maqsadli metodik tizimini joriy etish maqsadida "Uydagi yakka tartibdagi talim" o'quv qo'llanmasi va shu nomda fan hamda ishchi dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

aqli zaif bolalarga o'z o'ziga xizmatni va atrof olamni idrok qilishga o'rgatuvchi "Men va Jamiyat" nomli ota-onalar, talabalar va keng jamoatchilik uchun metodik ko'rsatma ishlab chiqilgan;

boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan "Team-Time", "Nutqiy konstruksiya", "Muammoli ta'lim" va "Art texnologiya" kabi innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llab o'qitish shakllari, metodlari va vositalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbaalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plamlarida, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan

natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maxsus ta'lim muassasalarida aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga erta va samarali tayyorlashga yo'naltirilgan korreksion, psixologik va kompensatsion o'quv-pedagogik jarayonni ta'minlashga erishishda innovatsion ta'lim texnologiyalari va fanlararo integratsion o'qitishdan foydalanishning metodik tizimi tarkibidagi texnologik blokning takomillashtirilganligi, oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi maqsadli hamkorlikni kuchaytirish, ish turlari va uning uslubiy-metodik ta'minoti yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati korreksion-rivojlantiruvchi muhitda aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlarning Maxsus pedagogika yo'nalishi o'quv rejasi tarkibidagi ixtisoslik fanlari-modullarining o'quv-metodik majmualari mazmuniga singdirilganligi, jumladan, talabalarni korreksiya va kompensatsiya tadbirlarini amalga oshirishga tayyorlash bo'yicha keys topshiriqlar "Alohida yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy psixologiyasi" nomli modul mazmuniga kiritilganligi va bu yo'nalishdagi metodik instrumentlarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari insonparvarlik tamoyillarining huquqiy kafolatlariga mos mikromuhitni yaratish hamda rivojlantiruvchi ta'limning kommunikativ-konstruktiv, tashkiliy-refleksiv komponentlarini korreksion ta'lim amaliyoti bilan o'zaro integrativ uyg'unlashtirish tendensiyalari asosida takomillashtirishga oid takliflari "Uydagi yakka tartibdagi talim" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi 166-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 178-raqamli guvohnoma). Natijada aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoniga talabalarni tayyorlashning metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni muammoli-loyihaviy texnologiyalar, tolerantlik, shaxsga yo'nalganlik va qadriyatlilik tamoyillariga asoslangan kompleks ta'sirni boshlang'ich kasbiy bilimlarning oddiydan murakabga qarab rivojlantirish traektoriyasiga bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalari "Kun mavzusi" nomli ko'rsatuvni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Jizzax viloyati teleradiokompaniyasining 2021-yil 28-martdagi 10-12/204-son ma'lumotnomasi). Natijada aqli zaif bolalar bilan ishlashning kompleks usullarini keng jamoatchilikka targ'ib qilishga erishilgan;

aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning didaktik modeli ta'lim oluvchilarda ijtimoiy potensial imkoniyatlarni rivojlantiruvchi maqsadli-motivatsion, mazmunli-texnologik pedagogik jarayon bosqichlari izchilligi va barqarorligiga ta'limiy maqsadlarni dinamik moslashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining "Talim va taraqqiyot", "Bolalar va biz" nomli dasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 15-sentabrdagi 04-36-1515-son ma'lumotnomasi). Natijada aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga

tayyorlash bosqichlari hamda ularda qo'llaniluvchi metodlardan foydalanishning didaktik ta'minotini ommalashtirishga sharoit yaratilgan;

aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorgarligini baholash me'zonlari korreksion ta'lim subektlari manfaatlarini inobatga olish hamda ijtimoiy faoliyat trayektoriyasiga differensial ishlash kompetensiya elementlarini intensiv rivojlantirishga qaratilgan kasbiy-amaliy topshiriqlar bilan konsentrik uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsyaillar "Uydagi yakka tartibdagi ta'lim" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 13 maydagi 166-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 178-raqamli guvohnoma). Natijada aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning nazariy-metodik aspektlari**" deb nomlanadi va unda mavzuning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, xususan, ijtimoiy-hayotga tayyorlashga doir milliy va xorijiy olimlarning pedagogik qarashlari, aqli zaiflikning klinik belgilari, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omillari hamda tamoyillari hamda mamlakatimizda har bir bolani ta'lim bilan qamrab olish, atrof-muhitga moslashtirish uchun ularning imkoniyatlariga mos yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish vazifalarining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati bayon etilgan. Bundan tashqari, sog'lom va aqli zaif bolalarning ijtimoiylashuvi qiyosiy o'rganilgan. Sog'lom bolalar ijtimoiy me'yorlarni bolalikdan kattalarga taqlid qilgan holda hamda turli tarbiyaviy vositalar yordamida o'rganadilar. Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar esa, ijtimoiylashish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni maxsus tashkil etilgan sharoitda, muayyan dasturlarga tayanilgan kompleks tadbirlar orqali egallaydilar. Chunki ular bilan muloqotga kirishish, ularda o'qish hamda ijtimoiylashish motivatsiyasini tarkib toptirish uchun ota-onalarda korreksion-pedagogik malakalar yetarlicha shakllanmagan hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda aqli zaif

bolalarni ijtimoiylashtirish vazifalari maxsus ta'lim muassasalari zimmasiga yuklanmoqda. Demak, ta'lim muassasalari rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va hayotga tayyorlash vazifalarini hal etadi. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarning shakllanishi mazkur bolalarga nisbatan maktabgacha ta'lim davridagi ta'limiy e'tiborga bevosita bog'liqdir. Bolalar sog'lom yoki muayyan muammoga ega bo'lmasin, ular qanchalik erta ta'limga jalb etilsalar, shunchalik maktab ta'limiga kompleks tayyor bo'lishiga keng imkoniyat yaratilishi milliy va xorijiy amaliyotda o'z isbotini topgan. Xususan, aqli zaif bolalarning aqliy va nutqiy jihatdan maktabga tayyor bo'lishi ularning elementar fan asoslarini egallashlarini qulaylashtiradi. Natijada, ijtimoiy hayot uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga sharoit yaratiladi. Aksincha bo'lsa, ya'ni aqli zaif bolada nutq, elementar bilimlar yetarli bo'lmasa, maktab yoki maktab-internat pedagoglari zimmasiga ularni dastlabki hayotiy ko'nikmalar bilan ham qurollantirish vazifalari to'g'ridan-to'g'ri yuklanadi. Shu bois, maxsus talimda bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonini tashkil etishning samarali usul va texnologiyalarini tizimlashtirish hamda takomillashtirish dolzarb masala sifatida yuzaga keldi. Aqli zaif bolalar maktablari uchun o'quv rejalarni optimallashtirish, fan dasturlarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini inobatga oluvchi variativ yondashuvlarni singdirish, mazkur toifa bolalarning egallashi lozim bo'lgan kasb turlari bo'yicha ta'lim muassasalarida moddiy-texnika bazani mustahkamlash kabi vazifalar bolalar ijtimoiylashuvining negizini tashkil etadi.

Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan insonlarning jamiyatning turli ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarida faol ishtirok etishlari, ijtimoiy hayotga moslashishini ta'minlashda, maktab ta'limining ahamiyati kattadir. Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida yetakchi nuqson bilish jarayonlari funksiyalarining to'laqonli yoki yetarlicha rivojlanmay qolganligidir. Bilish faoliyatining pasayganligi fikrlash va psixik jarayonlarning sur'ati, harakatchanligining buzilishi, diqqat, xotira va bir qator bosh miya po'stloq funksiyalarining rivojlanmay qolganligida namoyon bo'ladi. Aqli zaiflikning xalqaro tasniflanishida yengil, o'rta, og'ir va chuqur og'ir darajalari farqlanmoqda. Tadqiqotimizda mazkur muammoning turli tasniflari o'rganildi. Jumladan, M.S.Pevzner oligofreniyaning quyidagi asosiy ko'rinishlarini ajratdi: oligofreniyaning yengil ko'rinishi; neyrodinamik jarayon buzilishi natijasidagi oligofreniya; psixopatologik shakl xususiyatiga ega bo'lgan oligofreniya; turli analizatorlar buzilishi natijasidagi oligofreniya; peshonadagi kamchiliklar natijasidagi oligofreniya.

Aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga kompleks tayyor bo'lishini ta'minlashda sog'lom bolalarning shaxs sifatida shakllanish jarayonini tahlil qilishga ehtiyoj tug'ildi. Shu bois qator olimlarning ijtimoiylashishga doir pedagogik va psixologik qarashlari, tavsiyalari o'rganildi. A.V.Petrovskiy ijtimoiylashishni 3 darajaga ajratadi: moslashish: bolalik davri, odamlar dunyosiga kirib boradi, belgilar tizimini o'zlashtiradi; individuallashtirish: ehtiyojlariga bog'liq, "men", ya'ni individuallik paydo bo'ladi; integrasiyalashuv: ijtimoiy qadriyatlar ijtimoiy guruhga tegishlilikni anglaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalarda psixik jarayonlarning kech va sust rivojlanishi bilan bog'liq ravishda ularning ta'lim muddatlari belgilanib, mos usul va vositalar

tanlanadi. Mazkur yoʻnalishda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimiz quyidagi xulosani asoslashga hizmat qildi. Yaʼni taʼlim-tarbiya ishlari oilalarda tizimli yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa va albatta maktabda maxsus dasturlar yordamida muntazamlilik asosida toʻldirilib borilsa, aqli zaif bola ijtimoiy hayotga tayyor boʻladi va u hayoti davomida yangi muhitga qiyinchiliksiz moslashadi. Intellektida nuqsoni boʻlgan bolalarning ijtimoiylashuvida eng muhim va hal qiluvchi omil bu ular bilan olib boriladigan taʼlim-tarbiyaviy, sogʻlomlashtiruvchi, qoʻllab-quvvatlovchi ishlardir. Bu ishlarni rejalashtirish, amalga oshirishda quyidagi shart-sharoitlar zarurligi aniqlandi: aqli zaif bolalarning emotsional-hissiy sohasiga kompleks taʼsir etish. Buning uchun ularning ichki olamiga kira olish, ularni qayta aloqaga chorlash yoʻllarini topishga ehtiyoj tugʻiladi. Bu vaziyatda eng samarali yoʻl sifatida bolaning oila qurshovida boʻlishini, yaqinlarning unga nisbatan pedagogik nuqtai nazardan yondashishini olish mumkin. Oilalarda bolalarning nimaga qodir ekanini bilish, ularning qiziqishlari nimaga yoʻnalganligini anglash va ularga fiziologik, psixologik, ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish lozim; aqli zaif bolalarning oʻz-oʻziga xizmat koʻnikmalarini egallashga tizimli oʻrgatish. Bunda optimal natija sifatida ularning mustaqilligi va faolligini yuzaga keltirishga moʻljall olish lozim. Bolalarda oʻz-oʻziga xizmat qilish, atrofdagilarga oʻz fikrini tushuntira olish, oʻzini namoyon qilish koʻnikmalarini rivojlantirish lozim; bolalarni faoliyatning turli yoʻnalishlariga xos harakatlar tizimini namoyon etishga oʻrgatish. Yaʼni oʻyin, chizish, yasash, terish, ajratish, yumshatish, dam olish, ijodkorlik kabilarni rivojlantiruvchi maqsadli yondashuvlar tashkil etish: maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar, oilalar bilan birgalikda seminarlar, tadbirlar, mashgʻulotlar, ochiq mashgʻulotlar tashkil etish; bolalarning har bir harakatini ragʻbatlantirish va nojoʻya qiliqlari va harakatlarini jazolash vositalarini tanlash va joriy etish. Ushbu vazifa bola tarbiyasida, xususan, uning shaxs sifatida shakllanishida muhim omillardan sanaladi. Chunki bolalar har bir bajargan ishining oʻz vaqtida baholanishini, maqtalishini xush koʻrishadi. Shu oʻrinda ularni ayb ish yoki xato qilganda, albatta, javobgar boʻlishga oʻrgatish ham muhimdir. Buning uchun bolalarning shaxsiy xususiyatlari, psixologik sezuvchanligini hisobga olgan holda yondashish lozim; bolalarning oʻzigagina xos boʻlgan muhim psixologik xususiyatlarni inobatga olish. Aqli zaif bolalarning atrof-muhitga moslashishi, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, turli hayotiy vaziyatlarda oʻz-oʻzini namoyon qilishi va boshqalar ijtimoiy hayotga tayyor boʻlishning mezonlari sanaladi.

Bola sogʻlom yoki rivojlanishida maʼlum bir muammosiga ega boʻlmasin, uning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy hayotga tayyor boʻlishi muayyan muhit taʼsirida kechadi. Fiziologik va psixologik, intellektual, jismoniy rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (oʻyin, mehnat, oʻquv, sport) va atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar va boshqalar bilan). Bunda u oʻziga xos boʻlgan ijtimoiy faollikni namoyon etadi. Bu vaziyat mazkur bola uchun muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Tadqiqot davomida sogʻlom va aqli zaif bolalar rivojlanishi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning oʻziga xosligi va qiyosiy jihatlari oʻrganildi. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullarini tadqiq qilishdan oldin albatta, mazkur toifa bolalarning ijtimoiylashuvi qayday kechadi, qaysi omillar taʼsir qiladi? kabi savollarga javob beruvchi hamda sogʻlom bolalarga nisbatan farqlari xususida

nazariy manbalar va amaliy tajribalarni o'rganishga ehtiyoj tug'ildi. Chunki aqli zaif bolalar ijtimoiy hayotga tayyorlash usullarining qo'llanilishi ma'lum mezonlarga asoslanadi. Ushbu mezonlar esa, bolalarda muayyan ko'nikma va malakalarning shakllanganligida namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolaning ijtimoiylashishida ijtimoiy tajribaning ta'siri beqiyosdir. Bolalar kattalarga taqlid asosida turli faoliyatlarni mustaqil, boshqalarini esa, o'zgalar yordamida o'zlashtirishga erishadilar. Ijtimoiylashish natijasida aqli zaif bolalar sog'lom shaxslarga uyg'unlashadi.

Dissertatsiyaning **“Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganishning integrativ metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganish usullari, bu borada ta'limga bevosita va bilvosita aloqador subyektlarning o'zaro hamkorlik mazmuni yoritilgan. Ma'lumki, sog'lom bolalar kabi aqli zaif bolalar uchun ham ta'limning ilk davrlari kompleks rivojlanishning muhim davri bo'lib, bola shaxsini shakllanishining ilk yoshi hisoblanadi. Bu davrda ular tengdoshlari bilan muloqoti tashkiliy jihatdan murakkab ko'ringan o'zaro munosabatlarni paydo qiladi va bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf aqli zaif bolalarning ichki olami o'zgacha bo'lib, boshqa bolalar va kattalar olami bilan bog'liq bo'ladi. Aqli zaif bolaning yoshi katta bo'lgan sari, u tengdoshlari bilan ko'proq muloqotga intiladi yoki bu jarayondan qochadi. Aqli zaif bola uchun boshlang'ich ta'lim davri ham jamoaviy sifatlarning shakllanishidagi senzitiv davr hisoblanadi, shuningdek, boshqa odamlarga insoniy munosabatlarni uyg'otadi. Agarda bu sifatlarning asosi oilada va maktabda shakllanmasa, bola shaxsi rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buning oqibatida bola rivojlanishida to'siqlar ro'y beradi. Bu yoshda bilish faolligi ortib boradi: idrok, ko'rgazmali tafakkur rivojlanadi, matniiy tafakkur kurtaklari paydo bo'ladi. Bilish imkoniyatlarining o'sishi xotira, ixtiyoriy diqqat hosil bo'lishiga olib keladi. Boshlang'ich ta'lim davrida aqli zaif bolada atrof-olam haqidagi tasavvurlar paydo bo'ladi, atrofda voqelik va hodisalarning oddiy o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini anglash ko'nikmasi shakllanadi shuningdek, olgan bilimlarini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo'llay oladilar.

Aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganishda pedagogik-psixologik va korreksion ta'sir tamoyillari quyidagilar: aqli zaif o'quvchi psixikasini kompleks o'rganish tamoyili, ya'ni bolaning umumiy rivojlanishiga dahldor tor mutaxassislar tomonidan o'rganish (pediator, defektolog, psixolog, pedagog tekshirishidan olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni nazarda tutadi); analitiko-sintetik o'rganish tamoyili, ya'ni bolaning faqatgina bilish jarayonlarinigina emas, balki hissiy-irodaviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi; tizimli, manzilli o'rganish tamoyili. Bu tamoyil bolada kuzatilishi lozim bo'lgan jarayonning o'zigagina bog'liq holatlar tahlil qilinadi; integratsion yondashuv tamoyili. Bolaning psixik rivojlanishidagi alohida buzilishlarning namoyon bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va bir-biridan kelib chiqishini, ularning iyerarxiyasi, birlamchi va ular asosida kelib chiqadigan ikkilamchi buzilishlarning o'zaro munosabatini nazarda tutadi; bolaning psixikasini chiziqli o'rganish tamoyilidir. Bu tamoyil bo'yicha, bolani o'rganishda, tekshirish vaqtida olingan natijalarni qayd qilib borish, oldingi va keyingi holatlarni solishtirishni taqozo etadi; dinamik tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarning **“Yaqin rivojlanish zonasini”**, ta'limda ularning potensial imkoniyatlarini o'rganish haqidagi fikrlari yotadi. Ya'ni aqli zaif bola

biladigan va bajara oladiganlarni emas, balki unga yana yangi bir harakatni bajarishga undash orqali harakatlarni namoyon qilishi, ta'limdagi imkoniyatlarini ham e'tiborga olish lozimdir.

Biz amaliyotga boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida pedagoglar, ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan rioya etilishi lozim bo'lgan qoidalarni tavsiya etdik. Ular: aqli zaif bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashda xolislik, obyektivlik qoidasi, ya'ni o'qitish, tarbiyalash hamda ma'lum muammolarni korreksiyalashda bola uchun tabiiy holatni yuzaga keltirish; bolaning moslashuvi kundalik vaziyatlarda kengroq namoyon bo'lishi sababli, kompleks ta'sir sharoitini va metodlarini tanlashda bolaning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish qoidasi; bolaning o'z-o'zini namoyon qilishini kuchaytirishda uning faoliyatini, vazifalarni bajarishga oid elementar uquvlarini e'tiborga olish qoidasi.

Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganish jarayonida bolani har tomonlama kuzatishga e'tibor qaratildi. Kuzatish vaqtida pedagog, tarbiyachi, psixolog bolaning psixik va nutqiy rivojlanish xususiyatlarini tavsiflaydigan ba'zi bir tomonlarni, masalan, yangi sharoitga, notanish odamlarga bo'lgan reaksiyasini, aloqaga kirishish xususiyatlarini, aloqa qilishda verbal vositalardan foydalanishi, atrofga bo'lgan qiziqishining namoyon bo'lishi, onaning bolaga bo'lgan munosabati, hissiy o'zaro ta'sir xarakteri, qo'zg'aluvchanligi, tez charchashi va hokazolarni e'tiborga oladi. Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganishda faoliyat natijalarini o'rganish metodidan foydalanildi. Ushbu metod aqli zaif bolalarning ijtimoiy moslashuvi darajasini o'rganishda samarali metodlardan hisoblandi.

Boshlang'ich sinf aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash uchun quyidagi mezonlar tanlab olindi: o'z-o'ziga xizmat ko'nikma va malakalarini egallaganligi; o'zini namoyon qilish malakalarining shakllanganligi; muloqotga kirishuvchanligi; topshiriqlarni tushunishi va bajarishi. Har bir mezon bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'rganish uchun 10 tadan topshiriq tayyorlandi. Topshiriqlar rasmlil, sxemali va matnli shaklda tayyorlandi. Ta'kidlovchi tadqiqot davomida aqli zaif bolalarda sanab o'tilgan mezonlarning shakllanganligini tahlil qilishda qo'llaniluvchi usullarning optimalligini aniqlab oldik.

Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullarining amalda o'rinli va to'g'ri qo'llanilayotganligi hamda ushbu usullarning natijaviyligini baholashga yo'naltirilgan tadqiqot doirasida pedagoglarning kasbiy faoliyati mavjud holatini o'rganib, keyingi bosqich tajriba-sinov ishlarining yo'nalishlari belgilab olindi. Ular quyidagilar: boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etish omillarini aniqlash va ushbu jarayon natijalarini o'rganishda samarali usullarni qo'llash uchun pedagoglarning psixologik bilimlarini oshirish, ularni psixologik metodlar bilan tanishtirish; boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganish usullarini qo'llash mexanizmini o'rganish va takomillashtirish; aqli zaif bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganish bo'yicha mavjud texnologiyalarni aniqlash va ular orasidan samarali deb topilgan metod va texnologiyalarni tizimlashtirish; innovatsion yondashuvlar vositasida aqli zaif bolalar ijtimoiy moslashuvini, ularda shakllangan bilim, ko'nikma, malaka va elementar kompetensiyalarga tayangan holda o'rganish imkonini beruvchi samarali usul, yo'l va

vositalarni aniqlash, amaliyotga joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Aqli zaif bolaning mo'tadil bo'lmagan, uzoq va qisqa muddat davom etib turuvchi zo'riqish, qo'zg'aluvchanlik holatlari bolani o'rganish va ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonining turli sharoitlarda kechishi lozimligini ko'rsatdi. Bu holat aqli zaif bolani ijtimoiylashtirish jarayonida metod va shakllarning qo'shib olib borilishini keltirib chiqardi. Masalan, kuzatish suhbat bilan, hikoya o'yin bilan, tajriba esa, mehnat faoliyatini tashkil etish va ish natijalarini o'rganish bilan amalga oshirilsagina natijalarni olish va qayd etish imkoniyatini berdi.

Pedagog, tarbiyachi yoki psixolog qaysi metodni qo'llasa ham turlicha yondashishi talab etildi. Masalan, "Senga nima yoqadi" mavzusida suhbat vaqtida kuzatish, kuzatish natijalari orqali ijtimoiy hayotga tayyorlashda sensor yondashuvlar taqozo etildi. Ya'ni bola so'ralayotgan obyekt yoniga kelib, uni ushlab ko'radi, tanish belgilari bilan taqqoslaydi va shu asosda o'ziga yoqqan narsani tanlashi amalga oshirildi, xuddi shu paytning o'zida pedagog o'yin elementlarini kiritdi. Bu vaziyat pedagog yoki psixologdan pedagogik improvizatsion ko'nikmalarni taqozo etdi. Ya'ni aqli zaif bolani o'rganish va ijtimoiy hayotga tayyorlashda bir usulning o'zidan turlicha foydalanish mumkin. Masalan, aqli zaif bolaning ijtimoiy moslashuvi hamda ijtimoiy hayotga tayyor bo'lishini o'rganishda kuzatish vaqtida bolalarga taqqoslash imkonini beruvchi didaktik o'yin metodini qo'shib qo'llashga ehtiyoj tug'ildi.

Aqli zaif o'quvchilarning ijtimoiy hayotga tayyorligini o'rganish bo'yicha ayrim instrumental qismlari takomillashtirilgan metodika o'zining adaptivligi bilan amaliyotchi pedagoglar hamda ota-onalar tomonidan ijobiy baholandi. Chunki qo'llanilgan usul va ish turlari nafaqat ta'lim muassasalarida, balki oilaviy sharoitda hamda jamoat joylarida ham bolalar bilan ishlashga mo'ljallandi. Aynan turli hayotiy vaziyatlarda o'quvchilarni kuzatish va ularning hatti-harakatlarini baholash ijtimoiylashtirish tadbirlarining natijadorligini namoyon etdi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning korreksion-pedagogik tizimi" deb nomlanib, uning mazmunida biz tomondan taklif etilgan qator texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari bayon etilgan. Tadqiqot davomida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda o'quv, tarbiyaviy va korreksion-pedagogik jarayonlarining uyg'unlashishi maqsadga muvofiq deb hisoblandi. Chunki aqli zaif bolani o'rganishda va uni ijtimoiy hayotga tayyorlashda bir tomonlamalikdan qochish talab etiladi.

Biz ushbu tadqiqot davomida aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda kompleks ta'sirning quyidagi komponentlarini ajratdik: sensor yo'nalish (predmetli-amaliy, intellektual faoliyatga yo'naltirilgan); kommunikativ-hissiy (verbal, noverbal muloqotga va psixologik ish turlarga asoslangan); kompleks-integratsion (aqli zaif bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda turli faoliyatlar integratsiyasiga asoslanadi). Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, hayotiy vaziyatlarda mashg'ulotlar tashkil etish, darslarni imitatsion shakllarda olib borishga o'rgatuvchi metodik ko'rsatmalar yetarli emas. Shuning uchun biz aynan innovatsion yondashuvlar: "Artterapiya", "Ertak terapiya", "Nutqiy topshiriqlar konstruksiyasi", "Sensor quvvat mashqlari", "Shablonli instruksiya"lar kabi usullarni ishlab chiqdik va amaliyotga tavsiya etdik.

“Nutqiy topshiriqlar konstruksiyasi” aqli zaif boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda eng samarali usullardan deb topildi. U orqali hayot uchun zarur ko‘nikma va malakalar kurtaklarining tarkib topganligini baholash imkoniga ega bo‘lindi. Mazkur bolalarda shakllanishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarga quyidagilar kiradi: o‘zini tanishi, ismini bilish; kattalarga salom berishi; oddiy mehnat harakatlarini bajarish; boshi, ko‘zi va boshqa tana a‘zolarini jarohatlardan asrashi; hayvonlar, turli tashqi salbiy holatlar (chuqurliklar, rozedka, ariq, qattiq-shishali jismlar, dorilar, pichoq, issiq-qaynoq...)da o‘zini tutishi; oziq ovqatlarni tanishi va ularni tanovul qilishi; gigiyenik a‘zolari bilishi va ehtiyotkor bo‘lishi; yaqinlarini tanishi, begonalar bilan gaplashmaslik. Sanab o‘tilgan barcha mezonlarni aqli zaif bolada shakllantirish ularning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi. Ko‘rinib turibdiki, sanab o‘tilgan mezonlar faqat muassasada emas, oilada, mahallada va boshqa jamoat joylarida shakllanadi.

Tadqiqotda sensor usullardan “Arterapiya” yondashuvlari samarali qo‘llanildi. Ular vositasida aqli zaif bolalarning nafaqat ijtimoiylashuvini, balki bilish darajalarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Chunki muolajadan keyin bola o‘zini sokin tutadi, savollarni tushunishga harakat qiladi. Amaliyotda terapiyalar faqatgina korreksiya yoki profilaktikada qo‘llaniladi degan fikrlar bor. Biz esa, terapiyalarning funksiyasi kenroq deb hisoblaymiz va ta‘limiy tadqiqotda bu yondashuvlardan foydalangan holda shuni aytish mumkinki, terapiyalar nafaqat davolovchi, balki boshqa pedagogik-psixologik jarayonlar uchun motivatsion hususiyatga ham egadir. Ular bolalarni har tomonlama rivojlantirish jarayonini boshlash va samarali tashkil etish uchun poydevordir.

Ta‘limiy tadqiqot asosida aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda jamoaviy harakatga asoslangan “Team-Time” usulini tatbiq etdik. Ushbu usul aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun jamoaviy harakat sharoitini yaratish imkonini berdi. “Termometr” usuli aqli zaif bolalarning ichki kechinmalarini namoyon qilishga, o‘rgatishga mo‘ljallandi. “Termometr” usuli yakka va frontal tarzda qo‘llanilishi mumkin. Maxsus maktab, maktab-internatida aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga yo‘naltirilgan korreksion-pedagogik jarayonda individual yondashuvlardan foydalanish talab etiladi. Ayniqsa, aqli zaif o‘quvchilarda mustaqillik, o‘z hatti-harakatlarini boshqara olish, o‘z-o‘zini namoyon eta olish ko‘nikmasi yetarli emasligi tufayli bolalar faolligini jamoaviy o‘yin orqali rivojlantirishga e‘tibor qaratildi. Ijtimoiy hayotga psixologik-pedagogik tayyorlash jarayonida bolalar faoliyatining turli shakllari: o‘yin, mehnat, o‘qish kabilardan samarali foydalanildi. Ushbu faoliyat turlari aqli zaiflikning darajasi va u keltirib chiqqan ikkilamchi nuqsonlarga hamda bolalarning yakka yoki jamoaviy harakatlanish ko‘nikmasi, kattalar va tengdoshlari bilan samarali muloqot malakalariga bog‘liq holda tanlanadi. Boshlang‘ich sinf aqli zaif o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda muassasada va oilalarda bolalar hayotini tashkil etishning estetik talablarga mosligi ham muhimdir. Chunki aqli zaif bolalarning ijtimoiylashuviga erishish uchun pedagogik jarayonda pedagogning ma‘naviy fazilatlari, umummadaniy kompetensiya talablari doirasida faoliyat yuritishi ham talab etiladi. Maxsus ta‘lim muassasasiga yangi kelgan bolalarni biologik va ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashda ularga o‘zini psixologik qayta qurishni, o‘z hulqini o‘zgartirishni, notanish kishilar va tengdoshlari bilan aloqaga kirishishni o‘rgatish

alohida maqsadli ishlarni tashkil etishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda pedagog, tarbiyachi, psixolog va ota-onalar hamkorlikda bolaning ijtimoiy moslashuviga yordam berishlari zarur.

Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion usullaridan “Rasmi test”, “Mnemotest” kabilardir. Biz ushbu usullarni pedagogikada qo‘llanilib kelinayotgan o‘qitish usullariga asoslangan holda tranfarmatsiyalagan holda ishlab chiqdik. “Mnemotest” lar bolalarga berilgan savol yoki topshiriqni eslatuvchi qo‘shimcha belgi yoki rasmdan foydalanish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf aqli zaif bolalar bilish faoliyati turg‘un buzilganligi bois, ularga doim biron narsani o‘rgatishda shablonli tayanch yondashuvlar talab etiladi. Shuning uchun biz “Rasmi test” orqali bolalarni hayotiy ko‘nikma va malakalar bilan tizimli qurollantirishga erishdik.

Maxsus ta‘lim muassasalarida o‘quv, tarbiyaviy va korreksion jarayonlarni samarali tashkil etishda aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullari, texnologiyalarini muntazam takomillashtirib borish, amaliyotga variativ usul va vositalarni tatbiq etishning ahamiyati va didaktik-psixologik imkoniyatlari kengligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlandi. Amaliyotga tatbiq etilgan aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash texnologiyalarining samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda olib borildi.


1-bosqich. Usullarni tatbiq etish va ular haqida pedagoglar fikrini o‘rganish. Talimiy tadqiqot jarayonida aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullarining tasniflanishi asosida bir qator usullar takomillashtirildi va yangi innovatsion usullar ishlab chiqildi.

2-bosqich. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonini tashkil etishga mo‘ljallangan vazifalar belgilab olindi va pedagoglarga taqdim etildi.

3-bosqich. Maxsus ta‘lim muassasasi va oilalarning hamkorligini kuchaytirish maqsadida kompleks vazifalar belgilab olindi va ushbu vazifalar sinf rahbarlari va tarbiyachilar orqali keng targ‘ib etildi.

Pedagoglarning boshlang‘ich sinf aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullaridan foydalanish ko‘rsatkichi sifat jihatdan ijobiy natijani ko‘rsatdi. Ya‘ni pedagoglar korreksion-pedagogik jarayonda biz tavsiya etgan va maxsus pedagogika-psixologiyada qo‘llaniluvchi an‘anaviy usullardan foydalanishga qo‘yiluvchi talablar va rioya etiluvchi tamoyil hamda qoidalarning mohiyatini anglagan holda faoliyatlarini tashkil etishi kuzatildi. Ayniqsa pedagog, tarbiyachi va psixologlarning aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash usullarini vaziyatga qarab tanlashi hamda kutilmagan holatlarda alternativ usulni qo‘llashga shay turishga o‘rganganlari tadqiqotning vazifalari maqsadli belgilanganligini namoyon etdi. Aqli zaif o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, atrofdagilar bilan og‘zaki, yozma (sodda gapli) muloqot qilishi, berilgan topshiriqlarni, ularga qarata aytilgan murojaatlarni tushunishi sifat jihatdan ijobiy tomonga o‘zgardi. Aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ular tayyorlagan narsalardan foydalanish ham samarali yondashuvlardandir.

